

TASDIQLAYMAN
“O‘zarxiv” agentligi Jamoatchilik
kengashi raisi



A.X. Ziyo

2024-yil 22-yanvar

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
1-son bayoni

Raislik qiluvchi:

A. X. Ziyo

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Tarix instituti direktori, “O‘zarxiv” agentligi Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar:

Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

Taklif etilganlar:

Sh. Sadikov

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari

O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi boshqarmalari boshliqlari, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa nodavlat, notijorat tashkilotlari vakillari

KUN TARTIBI

I. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligida 2023-yil arxiv ishini rivojlantirish samaradorligining natijalari to‘g‘risida;

II. “Idoraviy elektron arxiv” axborot tizimi to‘g‘risida

III. Davlat arxivlarida elektr energiyasini tejamkorligini ta‘minlashda Quyosh panellari o‘rnatilishi to‘g‘risida

IV. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikning 2023-yil Agentlik va tizim tashkilotlarida ijrosi to‘g‘risida

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha berilgan ma‘lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **qaror qilindi:**

I. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligida 2023-yil arxiv ishini rivojlantirish samaradorligining natijalari to‘g‘risida;

(A. X. Ziyo, Sh.Sadikov, D. Zakirova, Sh. Tursunbayev, A. Fayzullayev, L. Mirzayev, N. Anarkulova, A.X. Ziyo)

1. **“O‘zarxiv” agentligining O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini rivojlantirishning 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy ko‘rsatkichlari hisoboti bo‘yicha axborot ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

Unda, 2023-yil davomida amalga oshirgan ko‘rsatkichlar:

Arxiv sohasida aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari soni **8 taga yetkazildi**, jumladan Arab alifbosida yaratilgan turk, fors va arab tilidagi hujjatlardagi axborotlar to‘g‘risida annotatsiya ma’lumotlarini olish bo‘yicha hamda Arxiv hujjatlari, kitoblar va qo‘lyozmalarni raqamlashtirish (elektron nusxa olish) bo‘yicha **davlat xizmati onlayn ko‘rinishga o‘tkazilganligi;**

Davlat arxivlarida saqlanayotgan Milliy arxiv fondi hujjatlaridan **14,7 million (106,5 foiz) kadr/varaq raqamlashtirilganligi;**

Tashkilotlar idoraviy arxivlaridagi **229,6 ming** arxiv hujjatlari ilmiy-texnik ishlov berilib tartibga keltirilganligi;

Davlat arxivlarida **208,8 saqlov birligida** arxiv hujjatlari saqlovga qabul qilinib, doimiy va uzoq muddatli saqlovga oid arxiv hujjatlari umumiy soni **16,3 mln.** saqlov birligini tashkil etganligi;

Elektron hujjatlarni saqlash uchun topshirishga mo‘ljallangan **“Idoraviy elektron arxiv”** axborot tizimi ishlab chiqilganligi va tashkilotlarga bosqichma-bosqich joriy etilishi;

Respublika hududlarida joylashgan jami **2 ta arxiv (Denov va Quva tumanlari) yangi binosi** qurilib, foydalanishga topshirilganligi;

Agentlik faoliyatiga **ISO 9001:2015** sifat menejmenti hamda korrupsiyaga qarshi menejmenti **ISO 37001:2016** xalqaro standartlari asosida birlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilganligi;

MDH ishtirokchi davlatlari arxiv xizmatlari rahbarlarining **Maslahat kengashining** navbatdagi **19-yig‘ilishi** hamda **“Elektron hujjatlarni saqlash: texnologiyalar va usullar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya** o‘tkazilganligi va boshqa asosiy tadbirlar amalga oshirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashi a‘zolariga mazkur umumlashtirilgan ma’lumotlarni arxiv ishi sohasida keng foydalanish, targ‘ib qilish qilish tavsiya etilsin.

3. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari Sh. Tursunbayev mazkur ma’lumotlarni Agentlikning Arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati bo‘limi (Sh. Xojiboyev) bilan birgalikda Hay‘at yig‘ilishi va boshqa idoraviy yig‘ilishlarda muhokama, targ‘ibot va huquqiy savodxonlikni oshirishga doir tadbirlarda foydalanish uchun qabul qilsin.

II. “Idoraviy elektron arxiv” axborot tizimi to‘g‘risida

(A. X. Ziyo, A. Ziyatdinov, U. Yusupov)

4. Elektron hujjatlarni saqlash uchun topshirishga mo‘ljallangan “Idoraviy elektron arxiv” axborot tizimi ishlab chiqilganligi hamda amaliyotga joriy etish yuzasidan Agentlikning 2024-yil 11-yanvardagi 01-28-07/50-son xati bilan vazirlik va idoralarga yuborilganligi;

“Idoraviy elektron arxiv” axborot tizimini joriy etish bo‘yicha elektron qo‘llanma ishlab chiqilib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Agentlik va davlat arxivlari xodimlari 2024-yilda tashkilot va korxonalarda Elektron hujjatlarni saqlash uchun topshirishga mo‘ljallangan “Idoraviy elektron arxiv” axborot tizimini amaliyotga joriy etish va qo‘llash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirsin.

6. Agentlikning Arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati bo‘limi “Idoraviy elektron arxiv” axborot tizimini amaliyotga joriy etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha Agentlik rahbariga taklif kiritilsin.

III. Davlat arxivlarida elektr energiyasini tejamkorligini ta‘minlashda Quyosh panellari o‘rnatilishi to‘g‘risida

A. X. Ziyo, Sh. Sadikov, A. Fayzullayev, D. Ko‘charova, A. Mamanazarov

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-sentabrdagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi 518-son qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ma’lumotlar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 10-iyun kuni o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishining 48-son Bayoni ijrosi yuzasidan, “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil 1-iyuldagi 01-25-06/837-son bir yillik Chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi;

2023-yil rejasida davlat arxivlarining 11 ta binosiga o‘rnatilishi belgilanganligi, yil ohirida 40 ta binoga joylashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Jamoatchilik kengashi raisining o‘rinbosari Sh. Tursunboyev, Agentlik bosh mutaxassisi A. Fayzullayev bilan birgalikda energiya tejamkorligi bo‘yicha o‘rnatilayotgan elektr panellarining samaradorligi va tejamkorligi bo‘yicha Agentlik rahbariga har chorakda ma’lumot kiritib borsinlar.

IV. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikning 2023-yil Agentlik va tizim tashkilotlarida ijrosi to‘g‘risida

A. X. Ziyo, Sh. Sadikov, Sh. Tursunbayev, N. Anarkulova, A. Mamanazarov

9. “O‘zarxiv” agentligi rahbariyati tomonidan 2023-yil davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlardagi shahar hamda tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslarni sayyor qabuli jadvaliga asosan **23 ta** sayyor va shaxsiy qabullar o‘tkazilganligi;

Agentlikka 2023-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **1 055 ta** (2022-yilda 1 042 ta, ko‘rsatkichi **101%**), jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali **756 ta** (668 ta, ko‘rsatkichi **113%**), Adliya vazirligi orqali **64 ta**, Sayyor va shaxsiy, mas‘ul xodimlar qabullardan **185 ta** (168 ta, ko‘rsatkichi **110%**), Agentlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri

yo'zma **30 ta** (196 ta, ko'rsatkichi **15,3%**), idoraviy aloqa markazidan (ishonch telefoni) **16 ta** (10 ta, ko'rsatkichi **160%**), O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining "Xotin-qizlar muammolari bo'yicha 1211 ishonch telefoni" (Call-center)dan **5 ta** murojaatlar kelib tushganligi;

Respublika davlat arxivlariga jami jismoniy va yuridik shaxslardan **1 343 ta** (2022-yilda 2 185 ta, ko'rsatkichi **61,4%**) murojaatlar kelib tushdi hamda o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilganligi, shundan **629 ta** murojaat qanoatlantirilganligi, **465 tasi**ga tushuntirish berilganligi, **142 tasi** tegishlilik bo'yicha boshqa tashkilotga yuborilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

10. 2023-yil davomida Respublika arxivlariga **mavzuli** va **ijtimoiy-huquqiy mazmundagi** so'rovlar jami **569 912 ta** (2022-yilda 538 826 ta, ko'rsatkichi **105%**) kelib tushganligi;

Jumladan, **ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar 474 323 ta** (2022-yilda 455 494 ta, ko'rsatkichi **104%**) tashkil etib, shundan davlat arxivlariga 228 606 ta (226 724 ta, ko'rsatkichi **100%**), shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga 245 717 ta (228 770 ta, ko'rsatkichi **107,4%**) kelib tushganligi;

Davlat xizmatlari markazlari (DXM) va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali **408 473 ta** (335 135 ta, ko'rsatkichi **122%**), pochta va elektron pochta orqali **25 092 ta** (47 113 ta, ko'rsatkichi **53%**) ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar kelib tushgan bo'lsa, **38 084 nafar** (73 246 ta, ko'rsatkichi **52%**) fuqaro bevosita arxivga murojaat etganligi;

Arxiv hujjatlari asosida **344 620 ta** (346 267 ta, ko'rsatkichi **99,5%**) so'rovlar ijrosi bajarilib, ulardan **318 118 tasi** (312 628 ta, ko'rsatkichi **101,7%**) ijobiy, **26 502 tasi** (33 639 ta, ko'rsatkichi **78,7%**) bo'yicha esa tegishli ko'rsatma va tushuntirishlar berilganligi;

Tashkilot hujjatlari arxiv saqloviga kelib tushmagan va taalluqligi bo'yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan so'rovlar soni **114 886 tani** (98 453 ta, ko'rsatkichi **116,6%**) tashkil etganligi to'g'risidagi axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

11. Agentlik tizimidagi arxiv muassasalarida 2023-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchilik hamda huquqbuzarlikka yo'l qo'yganliklari uchun **71 nafar** rahbar (23 nafari) va mas'ul xodimlar (48 nafari) intizomiy javobgarlikka tortilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

12. Agentlik mas'ullari (Sh. Sadikov, Sh. Tursunbayev, N. Anarkulova) 2024-yilda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashni yanada kuchaytirish hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazida "O'zarxiv" agentligi va uning tizim tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlovchi xodimlarni "Davlat organlari va tashkilotlarning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish" o'quv kursida malaka oshirishini tashkil etish tavsiya etilsin.

13. Agentlikka faoliyatning ochiqligini yanada ta'minlash, fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda "Inson-jamiyat-davlat" tamoyili asosida faoliyatni davom ettirish, arxiv hujjatlaridan foydalanishda davlat va jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish tavsiya etilsin.

14. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari Sh. Tursunbayev bir oy muddatda Kengashning yangi tarkibini shakllantirish bo‘yicha taklif kiritsin.

Kengash kotibi
Sh. Tursunbayev

“O‘zarxiv” agentligi huzuridagi arxiv ishi masalalari bo‘yicha Jamoatchilik kengashi a‘zolari ro‘yxati.

1. **Azamat Ziyo** Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, tarix fanlari doktori, professor Jamoatchilik kengashi raisi
2. **Shuxrat Mirayimovich Tursunboyev** “O‘zarxiv” agentligi direktorining davlat tili bo‘yicha maslahatchisi Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari-Kengash kotibi
3. **Anvarjon Orifjonovich Aliyev** “O‘zarxiv” agentligi direktorining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi Jamoatchilik kengashi Ishchi organi rahbari
4. **Abdurasul Maxmudovich Yaxshiboyev** O‘zbekiston Milliy arxivi bo‘lim mudiri Kengash a‘zosi
5. **Anvarjon Akramjonovich Abdumuxtorov** O‘zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi Kengash a‘zosi
6. **Zulayxo Abdurazzakovna Akramova** Qonunchilik palatasi deputati Kengash a‘zosi
7. **Akmal Jumaqul o‘g‘li Amirov** Tashqi ishlar vazirligi arxiv mudiri Kengash a‘zosi
8. **Muazzamxon Xursanovna Umarova** Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi bosh mutaxassisi Kengash a‘zosi
9. **Nodira Bahodirjanovna Karimova** O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi devoni bo‘lim mudiri Kengash a‘zosi
10. **Lola Shavkatovna Arifjanova** Vazirlar Mahkamasi idoraviy arxivi mudiri Kengash a‘zosi
11. **Zumrad Bayxurazovna Rahmankulova** O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi Kengash a‘zosi
12. **Ozoda Raxmatjonovna Jahonova** O‘zbekiston Qizil yarim oy jamiyati kadrlar boshqarmasi inspektori Kengash a‘zosi
13. **Umida Alimdjanovna Teshabayeva** A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Kengash a‘zosi
14. **Ulbosin Abduaxatovna Abdumalikova** “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktori maslahatchisi Kengash a‘zosi
15. **Gulnora Adashevna To‘rayeva** O‘zbekiston Respublikasi IIV axborot markazi maxsus fondlar bo‘limi boshlig‘i Kengash a‘zosi
16. **Nargis Qosimova** Jurnalist, bloger Kengash a‘zosi
17. **Shavkat Turobovich Raxmatullayev** “Tarixchilar jamiyati” nodavlat notijorat tashkiloti rahbarining o‘rinbosari Kengash a‘zosi
18. **Maqaddas Do‘stmatov** Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi ijrochi direktori Kengash a‘zosi
19. **Davron Fatxullayevich Fayzullayev** “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi vakili-Qatag‘on qurbonlari muzeyi arxiv va fond bo‘limi boshlig‘i Kengash a‘zosi
20. **Nodira Maxmudovna Musayeva** O‘zbekiston Faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llabquvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi “Nuroniy” jamg‘armasi bo‘lim boshlig‘i Kengash a‘zosi
21. **Muxayyo Sirojiddanovna Isakova** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti Bosh ilmiy xodimi, O‘zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi Kengash a‘zosi